

The background of the slide is a repeating pattern of various human organs in a stylized, cut-out style. The organs include lungs (blue), liver (brown), stomach (red), kidneys (red), heart (red), brain (purple), and intestines (red). They are scattered across a light brown, textured background. A dark brown horizontal band is positioned across the middle of the slide, containing the title text.

Jinsiy sistema anatomiyasi

Organa genitalia masculina - erkaklar jinsiy sistemasi quyidagi organlarni o'z ichiga oladi:


1. **Organa genitalia interna** - ichki jinsiy a'zolar

- **testis** - moyak
- **epididymis** - moyak ortig'i
- **ductus deferens** - urug' olib ketuvchi yo'l
- **glandula vesiculosa** - urug' pufagi
- **ductus ejaculatorius** - ejakulyatsiya yo'li
- **prostata** - prostata bezi

2. **Organa genitalia externa** - tashqi jinsiy a'zolar


- **scrotum** - yorg'oq
- **penis** - olat
- **mons pubis** - qov do'ngligi (tuklar bilan qoplangan qism)

~ **urethra masculina** - erkaklar eretrasi, bir qismi ichki, bir qismi tashqi jinsiy a'zoga kiradi



Testis - moyak

- grekcha - orchis
- yorg'oqda joylashgan ellipssimon juft organ
- spermatozoidlar va androgenlar ishlab chiqariladi
- uzunligi 4,5 sm, eni 3 sm, bo'yi 2 sm
- massasi - 25-30 gr



I. Makroskopik tuzilishi

Yuzalari:


1. *Facies medialis* - yassilashgan
2. *Facies lateralis* - qavariqroq

Qutblari:

1. *Extremitas superior*
2. *Extremitas inferior*
 - *Lig.scrotale* - yorg'oq boylami, moyak va moyak ortig'ining pastki qutbi va yorg'oq orasiga tortilgan.

Qirralari:

1. *Margo anterior* - tunica vaginalis testis bilan yopilib turadi
2. *Margo posterior* - moyak ortig'i bilan yopilib turadi
 - *hilum testis* - moyak darvozasi, orqa qirradi o'rtalarida joylashgan. Qon tomir, nervlar kiradi, urug' olib ketuvchi yo'llar, limfa chiqadi.




© www.kenhub.com

KEN
HUB

~ *tunica vaginalis testis* - moyakning qin qavati, qorin pardaning bir qismi hisoblanadi va moyakni o'rab turadi. *Processus vaginalis peritonei* dan hosil bo'ladi. 2 qavatdan iborat:

1. *Lamina parietalis, periorchium*
2. *Lamina visceralis, epiorchium*

~ *Cavum serosum scroti* - ikkala qavat orasidagi tor bo'shliq. Hidrosele kasalligida shu joyda suyuqlik to'planadi.




А – вид спереди, Б – вид сбоку



Ichki tuzilishi

- **tunica albuginea** - moyakning butun yuzasini qoplab turuvchi oqsil qavat
 - **tunica vasculosa** - oqsil qavat ostida joylashgan, mayda qon tomirlar qavati
- **lobuli testis** - moyak bo'lakchasi
 - oqsil qobiqdan moyak parenximasiga moyak to'siqlari - septulae testislar botib kiradi va u stroma vazifasini bajaradi hamda moyakni bo'lakchalarga bo'ladi
 - bo'lakchalar soni 200-300 tani tashkil qiladi
 - har bir lobulusda 2 ta qismdan iborat 2-3 ta naycha bo'ladi:
 - **tubuli seminiferi contorti** - egri-bugri urug' yo'llari, spermatogen epiteliy bilan qoplangan
 - **tubuli seminiferi recti** - to'g'ri urug' yo'llari, egri-bugri urug' yo'llari davomi, rete testisga davom etadi.
 - naychalar uzunligi 100 sm, eni 140 mkm atrofida bo'ladi

Urug' yo'llari

- **rete testis** - moyak darvozasi yaqinida joylashgan urug' yo'llari to'ri
- **ductuli efferentes testis** - moyakning olib ketuvchi yo'llari
 - rete testisni epididimisga bog'laydi
- **mediastinum testis** - hilum testis yaqinida joylashgan, biriktiruvchi to'qima bilan to'lgan, u yerda rete testis hamda **Leydig interstitsial hujayralari** joylashgan bo'lib, **testosteron** ishlab chiqaradi.





А — вид сбоку, белочная и влагалищная оболочки частично удалены,
Б — продольный разрез

II. Qon bilan ta'minlanishi:



○ Артериалари:

- 1-asosiy manba

- Cor (yurak) → aorta → aorta descendens (abdominalis) → **a.testicularis**
- 2-manba
 - Cor → aorta → aorta descendens (abdominalis) → a.iliaca communis → a.iliaca interna → **a.ductus deferentis**
- 3-manba
 - Cor → aorta → aorta descendens (abdominalis) → a.iliaca communis → a.iliaca externa → a.epigastrica inferior → **a.cremasterica**

○ Venalari:

- Moyakdan qon dastlab → **Plexus venosus pampiniformisga** so'ngra → v.testicularisga → so'ngra o'ngda v.cava inferiorga, chapda v.renalisga (v.renalis → v.cava inferiorga) quyiladi → cor
- **Plexus venosus pampiniformis** - moyakda spermatozoidlar yetilishi uchun qulay bo'lgan haroratni hosil qilib, uni saqlab turadi



○ Klinik ahamiyati

- Chap tomonda qon aorta abdominalisdan a.testicularis orqali kelib, moyakdan **plexus pampiniformis** → v.testicularis orqali v.cava inferiorga emas v.renalisga quyiladi, ya'ni, katta bosimli qon tomirdan kelib, diametri kichik qon tomirga quyiladi. Natijada **plexus pampiniformis**da bosim oshib, varikoz kengayishi kuzatiladi va moyaklarda spermatogenez uchun zarur bo'lgan normal harorat buziladi. Bu kasalik **varikosele** deyiladi.

III. Klinik terminlar

Orxit - moyak yallig'lanishi

Gidrozele - moyak istisqosi, ya'ni, *cavum serosum scrotida* suv yig'ilishi

Moyak gipoplaziyasi - normal o'lchamdan kichikligi

Kriptorxizm - moyakning yorg'oqqa tushmasligi, 2 xil:

- **Distopik moyak** - moyak yorg'oqqa tushmagan bo'ladi, ammo, fiziologik tushish yo'lida, ya'ni, chov kanalining qaysidir qismida bo'ladi
- **Ektopik moyak** - bunda moyak fiziologik yorg'oqqa tushish yo'lidan tashqarida bo'ladi (kichik chanoqda, oraliqda, qov simfizi ustida)

~ **orxidopeksiya** - moyakni yorg'oqqa tushirish operatsiyasi

Moyakning buralib qolishi - moyak urug' tizimchasidagi qon tomir chigallariga o'ralib qoladi. Shoshilinch operatsiyani talab qiladi. 12 soat ichida yordam ko'rsatilmasa, moyakni nekroz sababli olib tashlashga (**orxidektomiya**) tog'ri keladi.


Moyak ortig'i - epididymis

- moyakning orqa qirrasi bo'ylab joylashgan uzun va ingichka juft organ
- egri-bugri kanallar yig'indisidan iborat
- **spermatozoidlar rezervuari** bo'lib xizmat qiladi
- shuningdek, bu yerda **spermatozoidlar uchun oziq ishlab chiqariladi**, hamda **spermatozoidlarning harakatchanligi va fertilligi oshadi**

I. Makroskopik tuzilishi

Asosiy qismlari


1. **caput epididymidis** - boshi, ichida *ductuli efferenteslar* joylashgan
 2. **corpus epididymidis** - tanasi, ichida egri-bugri kanallar joylashgan
 3. **cauda epididymidis** - dumi *ductus deferensga* birikkan
- **sinus epididymidis** - moyak ortig'i sinusi, moyak va epididimisni qoplagan visseral varaq orasidagi tor bo'shliq. Moyak ortig'ining ko'p qismi *tunica vaginalis*



testisning **visseral varag'i** bilan o'ralgan, faqatgina tanasi (*corpus epididymidis*) tashqi tomondan **parietal varaq** bilan qoplangan

Boylamlari



1. **lig.epididymidis superius** - moyakning yuqori qutbini epididimisga biriktiradi
2. **lig.epididymidis inferius** - moyakning pastki qutbini epididimisga biriktiradi
3. **lig.scrotale** - moyak va epididimisni yorg'oqning pastki qismiga biriktiradi



Ichki tuzilishi

Urug' yo'llari

- **lobuli (coni) epididymidis** - moyak ortig'i bo'lakchalari, epididimisning oqsil qobig'idan parenximaga biriktiruvchi to'qimali to'siqlar botib kirishidan hosil bo'ladi
- **ductuli efferentes** - olib ketuvchi yo'llar, 10-12 ta olib ketuvchi yo'llar mediastinum testisdan caput epididymidisga keladi va ductus epididymidisga ulanadi
- **ductus epididymidis** - moyak ortig'i yo'li, egri-bugri bo'lib, yozib chiqsa 6 m ga yetadi, bu yerda spermatozoidlar to'liq yetiladi. Yo'l Ductus deferensga davom etadi



II. Qon bilan ta'minlanishi


- moyakniki bilan bir xil:
 - **arteriya:** a.testicularis
 - **vena:** plexus pampiniformis → v.testicularis


Urug' olib ketuvchi yo'l - ductus deferens

- **cauda epididymidis** dan boshlanadi va uretraning prostatadan o'tuvchi qismiga ochiladi

Qismlari

- ✓ **pars scrotalis** - yorg'oqda joylashgan qismi
- ✓ **pars funicularis** - urug' tizimchasi ichida joylashgan qismi
- ✓ **pars inguinalis** - chov kanali ichida joylashgan qismi
 - chov kanaliga yuza chov halqasi orqali kiradi va chov kanalida **a.v.epigastricae inferiores**larni old tomondan kesib o'tib, chuqur chov halqasi orqali chanoq bo'shlig'iga kiradi
- ✓ **pars pelvica** - chanoq bo'shlig'ida joylashgan qismi, siydik pufagi orqasida urug' pufakchasining chiqaruv yo'li bilan birlashadi
 - **a et v.iliaca** lar chanoq bo'shlig'ida **ductus deferens**ni orqa tomondan kesib o'tadi
 - ureter esa siydik pufagi tubi yaqinida **ductus deferens**ning tagidan o'tadi
 - bu kesishmalarni operatsiya vaqtida elementlarni differentsatsiya qilish uchun bilish zarur
- ✓ **ampulla ductus deferentis** - urug' olib ketuvchi yo'lning oxirgi qismida joylashgan kengaygan segmenti
- ✓ **ductus ejaculatorius** - ejakulyatsiya yo'li
 - **ductus deferens** va **ductus excretorius** qo'shilishidan hosil bo'ladi
 - uretraning pars prostatica qismidagi urug' do'mboqchalariga ochiladi





Funiculus spermaticus - urug' tizimchasi


- juft, yumaloq tasma shaklida, uzunligi **18-20 sm**, ichida bir qancha tuzilmalar joylashadi

Urug' tizimchasi ichida joylashgan tuzilmalar:

1. *ductus deferens*
2. *a. ductus deferentis*
3. *a. testicularis*
4. *plexus venosus pampiniformis* va → *v. testicularis*
5. *plexus nervorum testicularis* - moyak nerv chigali
6. *plexus nervorum deferentialis* - ductus deferentis nerv chigali
7. *vasa lymphatica* - limfa tomirlar
8. *vestigium processus vaginalis peritonei* - qorin pardaning qin o'simtasi qoldig'i

Urug' tizimchasi qoplamalari (tashqaridan ichkariga qarab):

1. *fascia spermatica externa* - qorinning yuza fassiyasi davomi hisoblanadi
2. *m. cremaster* - moyakni ko'taruvchi muskul
 - *fascia cremasterica* bu muskulni qoplab turadi
3. *fascia spermatica interna* - ko'ngdalang fassiyaning davomi hisoblanadi



Urug' pufakchasi (bezi) - vesicula seminalis


- **glandula vesiculosa** ham deyiladi
- siydik pufagi orqasida joylashgan, naysimon bez, **ekstraperitoneal**
- uzunligi **12** smgacha, eni **6-7** mmdan **2** smgacha
- eyakulyatning **50-80%** ini ishlab chiqaradi, tarkibida spermatozoidlarga zarur bo'lgan **fruktoza** hamda **letsitin** moddasi bo'ladi, shuningdek, optimal mikroelementli va **ishqoriy muhit** yaratadi. Bularning barchasi **spermatozoidlarning harakatchanligini va tashqi ta'sirlardan himoyasini ta'minlaydi**

I. Skeletopiya

- S3-S4 umurtqalar ro'parasida joylashadi




II. Sintopiyasi

- oldinda: **siydik pufagi**
- orqada: **to'g'ri ichak**
- medial tomonida: **urug' olib ketuvchi yo'l ampulasi**
- pastda: **prostata bezi**



III. Makroskopik tuzilishi:

- ✓ *vesicula seminalis* - urug' pufakchasi
- ✓ *ductus excretorius* - chiqaruv yo'li
- ✓ *ductus ejaculatorius* - eyakulyatsiya yo'li, *ductus excretorius* va *ductus deferens* qo'shilishidan hosil bo'ladi



вид сбоку, изнутри

Bulbouretral bezlar - glandulae bulbourethrales


- o juft, murakkab alveolar-naysimon bez
- o no'xatdek keladi, rangi sariq-qo'ng'ir
- o ***m.perinei transversus profundus***, oraliqning chuqur ko'ndalang muskul tutamlari orasida joylashgan, bir-biridan 5 mm masofada
- o siydik kanali shilliq qavatini himoya qiladigan va spermaning suyulishiga yordam beradigan shilliq sekret ishlab chiqaradi


Chiqaruv yo'li

- o **ductus glandulae bulbourethralis** - ikkala bezning chiqaruv yo'li umumiy bo'lib, uzunligi 6 smgacha yetadi.
- o chiqaruv yo'li **ampulla urethrae** - uretra ampulasiga ochiladi

Qon bilan ta'minlanishi


- **Arteriyalari:**
 - o Cor → aorta → aorta descendens (abdominalis) → a.iliaca communis → a.iliaca interna → ... a.dorsalis penis → **rami perineales**
- **Venalari:**
 - o **Nomdosh venalar** → v.cava inferior → cor





Prostata bezi - prostata

- o toq organ, zich konsistensiyali, shakli **kashtanga o'xshash**
- o tuzilishiga ko'ra murakkab alveolar-naysimon bez
- o ko'ndalang uzunligi **4 sm** atrofida, bo'yi **3 sm**, qalinligi **2 sm**, hajmi yoshga qarab **20-30 sm³** gacha.
- o og'irligi **20 g** atrofida
- o **eyakulyatning 30% ini ishlab chiqaradi**
- o prostataning ichidan uretra o'tadi, shuningdek, **ductus ejaculatorius** ham prostataning ichidan o'tib uretraga ochiladi



I. Golotopiyasi

- kichik chanoq bo'shlig'ida joylashgan, **ekstraperitoneal**

II. Skeletopiyasi


- qov simfizining pastki qismi orqasida joylashadi

III. Sintopiyasi

- oldinda: **qov simfizi**
- orqada: **to'g'ri ichak**
- yuqorida: **siydik pufagi**



- pastda: **diaphragma urogenitalis** - urogenital diafragma
- yonda: **prostata vena chigali** - plexus venosus prostaticus



IV. Makroskopik tuzilishi

Asosiy qismlari:

1. **basis prostatae** - asosi, yuqori qismi, qovuq bo'yni atrofida joylashgan
2. **apex prostatae** - uchi, chanoq tubi diafragmasi tomonda joylashgan

Yuzalari:


1. **facies anterior**
2. **facies posterior**
3. **facies inferolateralis dextra**
4. **facies inferolateralis sinstra**

Bo'laklari:

- ✓ old yuzasida **sulcus prostatae** orqali, orqa yuzasida **isthmus prostatae** orqali bo'laklarga bo'linadi


1. **lobus dexter**
2. **lobus sinister**

~ **lobus medius** - o'rta bo'lak, yoshlarda deyarli bilinmaydi, keksalarda ko'pincha shu qismi giperplaziyaga uchrab, o'sib uretrani to'sib qo'yadi




Ichki tuzilishi

- ✓ prostata kapsula bilan o'ralgan bo'lib, kapsulasi 3 qavat:
 1. **capsula prostatica** - fibromuskulyar 2 qavatli kapsula, prostataning yuzasiga mahkam yopishgan
 2. **plexus venosus prostaticus** - prostata vena chigali
 3. **capsula periprostatica** - visseral chanoq fassiyasi hisoblanadi




Prostataning gistologik tuzilishiga asosan ajratilgan zonalar:

1. **zona peripheralis** - tashqi zona
2. **zona centralis** - markaziy zona
3. **zona transitionis** - o'tuvchi zona
4. **zona fibromuscularis** - fibromuskular zona
5. **zona glandularum periurethralium** - periuretral bezli zona



- prostata ichidan uretra o'tadi, bu qism **pars prostatica urethrae** deyiladi. Unda quyidagi strukturalar bo'ladi:
- ✓ **crista urethralis** - uretra qirrasi, orqa devorida bitta burma yaxshi rivojlangan bo'lib, qirra ko'rinishida bo'ladi
- ✓ **colliculus spermaticus** - urug' do'mbog'i, unga 2 ta ductus ejaculatorius ochiladi
- ✓ **sinus prostaticus(urethralis)** - uretra sinusi, crista urethralis ikki yonida joylashgan bir juft chuqurcha, ductuli prostatici (prostata bezining chiqaruv yo'llari) ochiladi.



V. Qon bilan ta'minlanishi

- **Arteriyalari:**

- Cor → aorta → aorta descendens (abdominalis) → a.iliaca communis → a.iliaca interna → ... 1. a.vesicalis inferior; 2. a.rectalis media

- **Venalar:**


- nomdosh venalar → plexus venosus prostaticus → plexus venosus vesicalis → v.iliaca interna → v.iliaca communis → v.cava inferior → cor

Yorg'oq - scrotum

- teri-muskulli organ, ichida moyak, epididimis va urug' tizimchasining boshlang'ich qismlari joylashgan
- harorati normal tana haroratidan 2-3 daraja pastroq bo'ladi
- **m.cremaster** qisqarganda tana tomonga tortiladi, bo'shashganda aksincha, bu muskul haroratga qarab qisqaradi yoki bo'shashadi

I. Makroskopik tuzilishi


- ✓ **septum scroti** - yorg'oq to'sig'i, yorg'oqni 2 ta bo'shliqqa ajratadi, har birida bittadan moyak joylashadi



- ✓ **raphe scroti** - yorg'oq choki, oldinda **raphe penisga** orqada **raphe perinealisga** ulanib ketadi
- ✓ **ligamentum scrotale** - moyak va epididimisni yorg'oqning pastki qismiga biriktirib turadi

Yorg'oq devori qavatlari (moyakni o'rab turuvchi „pardalar“):

1. **cutis** - teri
2. **tunica dartos** - go'shtdor qavat
3. **fascia spermatica externa**
4. **m.cremaster** va **fascia cremasterica**
5. **fascia spermatica interna**
6. **periorchium** (tunica vaginalisning parietal varag'i)
7. **epiorchium** (tunica vaginalisning visseral varag'i)
~ undan so'ng moyakning tunica albuginea qobig'i va moyak parenximasi keladi



II. Qon bilan ta'minlanishi

• Arteriyalari:

- a.iliaca externa → a.femoralis → a.pudenda externa → **rr.scrotales anteriores** - yorg'oqni old yarmini qon bilan ta'minlaydi
- a.iliaca interna → a.pudenda interna → **rr.scrotales posteriores** - yorg'oqni orqa yarmini qon bilan ta'minlaydi
- a.iliaca externa → a.epigastrica inferior → **a.cremasterica** - yorg'oqni ichki qavatlarini qon bilan ta'minlaydi

• Venalari:

- **Vv.scrotales anteriores** → v.pudenda externa → v.saphena magna → v.femoralis → v.iliaca externa
- **Vv.scrotales anteriores** → v.pudenda interna → ... v.iliaca interna
- **V.cremasterica** → v.epigastrica inferior → v.iliaca externa

Erlik olati - penis

I. Makroskopik tuzilishi

Asosiy qismlari:

1. **radix penis**


2. corpus penis

- *dorsum penis* - orqa yuzasi
- *facies urethralis* - pastki yuzasi
- *raphe penis* - pastki yuzada joylashgan chok

3. collum penis

4. glans penis


- *ostium urethrae externum* - tashqi uretra teshigi joylashgan
- *corona glandis* - bosh qismining orqa aylana qirrasini
- *preputium* - glans penisni o'rab turuvchi teri burmasi
- *frenulum preputii* - yugancha, teri burmasi
- *glandulae preputiales* - yuganchada joylashgan mayda bezchalar, lubrikant ishlab chiqaradi



вид снизу, передняя часть мошонки удалена

Boylamlari:

- *lig.suspensorium penis superficiale* - *dorsum penis*ni qov simfizi old qismiga biriktiradi, qorin yuza fassiyasining penis yuza fassiyasiga o'tishi natijasida hosil bo'ladi
- *lig.suspensorium penis profundus (fundiforme)* - penisning kavernoza tanalarini qov simfizi bilan biriktiradi








Ichki tuzilishi (qavatları)

1. *cutis* - teri
2. *fascia penis superficialis* - penisning yuza fassiyasi, harakatchan
3. *fascia penis profunda* - kavernoza tanalarni qoplaydi, harakatsiz
4. *tunica albuginea* - oqsil qavat, qalin biriktiruvchi to'qimadan iborat
5. *corpus cavernosum* - kavernoza tana, bir juft, silindrsimon, *tunica albuginea* bilan qoplangan
 - *septum penis* - penis to'sig'i, ikkala kavernoza tana orasida tunica albuginea hosil qiladi
 - *sulcus superior penis* - ikkala kavernoza tana orasida, penis to'sig'ining tepa qismida hosil bo'lgan egat, qon tomir, nervlar joylashadi
 - *sulcus inferior penis* - ikkala kavernoza tana orasida, penis to'sig'ining pastki qismida hosil bo'lgan egat, bunda gubkasimon tana - *corpus spongiosum* joylashadi

- *crus corporis cavernosi (crus penis)* - kavernozi tana oyog'i, bular yordamida kavernozi tanalar chanoq suyaklarining suyakusti pardasiga mustahkam birikadi
- *cavernae corporis spongiosi* - kavernozi tana katakchalari, har bir katakchaga **a.helicina** ochiladi. Bu katakchalarning qonga to'lishi natijasida ereksiya kelib chiqadi


6. *corpus spongiosum* - toq, gubkasimon tana, silindrsimon, *tunica albuginea* bilan qoplangan

- ichidan uretra o'tadi
- *bulbus penis* - gubkasimon tananing orqa kengaygan qismi
- *glans penis* - gubkasimon tananing old kengaygan qismi hisoblanadi



Muskullari:

- *m.bulbospongiosus*
 - bulbus spongiosusni va gubkasimon tana orqa qismini o'rab turadi
 - oraliqning **centrum tendineum** qismidan boshlanib, kavernoza va gubkasimon tanalarning orqa qismiga birikadi
 - **funksiyasi:** qisqarganda venoz qon tomirlarni siqadi, natijada qon g'ovak tanalarda to'planib, ereksiya yuzaga keladi, shuningdek, spermani bosim ostida chiqishini ta'minlaydi, siydikning oxirgi tomchilarini chiqarib yuboradi.
- *m.ischiocavernosus*
 - juft, **tuber ischiadica** dan boshlanib, **crus penis**larga birikadi
 - **funksiyasi:** qisqarganda **crus penis** orqaga tortilib, penis to'g'rilanadi, venoz qon tomirlar siqilib, **ereksiya** vujudga keladi




II. Qon bilan ta'minlanishi

• Arteriyalari:

- A.iliaca interna → a.pudenda interna →
 - **a.dorsalis penis**
 - **a.profunda penis** - kavernoza tanalar ichida j-n
 - **a.bulbourethralis** - gubkasimon tana ichida j-n
- A.femoralis → a.pudenda externa → **rr.scrotales anteriores**

• Venalar:

- **V.dorsalis penis va rr.scrotales anterioreslar** → v.pudenda externa → v.saphena magna → v.femoralis
- **V.profunda penis** → plexus venosus prostaticus → v.pudenda interna → v.iliaca interna



Erkaklar uretrasi - urethra masculina

- uzunligi 20-23 smga boradi
- siydik va urug' suyuqligini chiqarish vazifasini bajaradi

I. Makroskopik tuzilishi

Qismlari:



1. *pars intramuralis* - toraygan, devor ichi qismi, siydik pufagi devori ichida j-n
 - *ostium urethrae internum* - ichki uretra teshigi, siydik pufagiga ochilgan
 - yuqori qismini *m.sphincter vesicae* o'rab turadi, silliq muskul hisoblanadi, pastki qismini esa *m.sphincter urethrae internus* o'rab turadi.
2. *pars prostatica* - prostata bezining ichida joylashgan kengaygan qismi, bu qismiga *ductus ejaculatorius* ochiladi
3. *pars membranacea* - toraygan, membranasimon qismi
 - chanoq tubi diafragmasidan o'tadi
 - *m.sphincter urethrae externus* o'rab turadi
4. *pars spongiosa* - penisning gubkasimon tanasi ichida joylashgan qismi
 - *apulla urethrae* - boshlang'ich kengaygan qismi
 - *fossa navicularis* - qayiqsimon chuqurcha, uretraning oxirgi kengaygan qismi, glans penisda joylashgan

Egilmalari:

1. *curvatura infrapubica* - qovosti egilmasi, doimiy egilma, ya'ni, har qanday holatda ham *to'g'rilanmaydi*, pars membranaceaning pars spongiosaga o'tish qismida joylashgan

2. **curvatura prepubica** - qovoldi egilmasi, penisning fiksatsiyalangan (**pars fixa**) va harakatchan (**pars mobilis**) qismlari chegarasida joylashgan, doimiy emas, ya'ni, ereksiya vaqti **to'g'rilanadi**


Organlar makroanatomiyasi rasmlarini diqqat bilan ko'rib chiqing!!!



А – схема, Б – фронтальный разрез через половой член

Toraygan qismlari

1. pars intramuralis
2. pars membranacea
3. pars spongiosa (2 ta qismi istisno)
4. ostium urethrae externum



Kengaygan qismlari

5. pars prostatica
6. ampulla urethrae
7. fossa navicularis

II. Qon bilan ta'minlanishi

• Arteriyalari:

Pars prostatica qismi:

- A.iliaca interna → a.vesicalis inferior
→ a.prostatica
→ a.rectalis inferior

Pars membranacea qismi:

- A.iliaca interna → a.pudenda interna → a.urethralis
→ a.perinealis

Pars spongiosa:

- A.iliaca interna → a.pudenda interna → a.profundus penis → rr.urethrales

• Venalari:

- Nomdosh venalar → plexus venosus prostaticus
→ plexus venosus vesicalis → v.pudenda interna

Klinik holatlarga misollar

- **Funnikulit** - urug' tizimchasi yallig'lanishi
 - **Vezikulit** - urug' pufakchasi yallig'lanishi
 - **Prostatit** - prostata bezi yallig'lanishi
 - **Prostata xavfsiz giperplaziyasi** - keksalarda prostataning xavfsiz o'smasi
 - **Uretrit** - siydik chiqarish kanali yallig'lanishi
 - **Balanit** - peniss bosh qismi yallig'lanishi
 - **Erektile disfunktsiya** - ereksiyaning buzilishi
 - **Peyroni kasalligi** - penisning qiyshayishi
- Batafsil keyinroq urologiya siklida...